

---

## Bugun ijtimoiy tarmoqlarda MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI TASHKILOTIDA ORTIQCHA BOLALARNI TARBIYALASH DAVOM ETMOQDA sarlavha material e'lon qilindi.

Holat Buvayda tuman hokimi hamda Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan nazoratga olindi.

E'lon qilingan holat Buvayda tumani markazidan olisda yani markazdan 35 km uzoqlikdagi Uzumzor mahalla fuqarolar yig'inidagi 28-DMTT ro'y bergani aytilgan.

Uzumzor mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan 28-DMTT 2019-yilda "Obod qishloq" dasturi doirasida to'liq rekonstruksiya qilingan. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti 140 o'rinli bo'lib hozirda 75 nafar jajji bolajonlarni tarbiyalab kelmoqda.



Uzumzor mahalla fuqarolar yig'inida 280 ta xonadon, 1700 nafar aholi istiqomat qiladi.

Shu o'rinda bir savol paydo bo'ladi? Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti 140 o'rinli bo'lsa, hozirda 75 nafar tarbiyalanuvchisi bo'lsa qanday qilib tarbiyalanuvchilar polda uxlashlari mumkin?